QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.005

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY-AXLOQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AKSIOLOGIK AHAMIYATI

Sultonov Sherzod Elmuratovich
Qo‘qon davlat universiteti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-axloqiy madaniyatni rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning aksiologik jihati nazariy jihatdan tahlil qilingan. “Qadriyat”, “qadriyatli yo‘nalganlik” va “qadriyatli ustanovka” tushunchalarining mazmuni, pedagogik qadriyatlarning mavjud tasniflari qiyosiy o‘rganilgan, kompetensiya va qadriyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik asoslab berilgan. Aksiologik yondashuvni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlari: ma’naviy tanlov vaziyatlari, xalq pedagogikasi namunalari, kasbiy-axloqiy treninglar va ijodiy to‘garak mashg‘ulotlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy-axloqiy madaniyat, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik aksiologiya, qadriyatli yo‘nalganlik, pedagogik qadriyatlar, bo‘lajak o‘qituvchi.

Аннотация. В статье теоретически проанализирован аксиологический аспект компетентностного подхода в развитии профессионально-этической культуры будущих учителей. Сопоставлено содержание понятий «ценность», «ценностная ориентация» и «ценностная установка», рассмотрены существующие классификации педагогических ценностей, обоснована органическая связь между компетенцией и ценностью. Раскрыты педагогические возможности реализации аксиологического подхода: ситуации морального выбора, образцы народной педагогики, профессионально-этические тренинги и занятия творческого кружка.

Ключевые слова: профессионально-этическая культура, компетентностный подход, педагогическая аксиология, ценностная ориентация, педагогические ценности, будущий учитель.

Abstract. The article theoretically analyses the axiological aspect of the competency-based approach in developing the professional and ethical culture of future teachers. The content of the concepts “value”, “value orientation” and “value attitude” is compared, existing classifications of pedagogical values are examined, and the inherent link between competence and values is substantiated. The pedagogical opportunities for implementing the axiological approach are described, including situations of moral choice, samples of folk pedagogy, professional-ethical trainings and creative club sessions.

Keywords: professional and ethical culture, competency-based approach, pedagogical axiology, value orientation, pedagogical values, future teacher.

KIRISH. Mamlakatimizda pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, oliy ta’lim sifatini oshirish va yosh avlod tarbiyasiga mas’ul mutaxassislarning ma’naviy-axloqiy salohiyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xalq ta’limi tizimini hamda oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyalari, Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi va pedagogik ta’lim sohasini rivojlantirishga oid qaror hamda farmonlarda o‘qituvchining kasbiy mas’uliyati, ma’naviy yetukligi va tarbiyaviy faoliyatga tayyorligi alohida e’tirof etilgan. Pedagogik faoliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra axloqiy faoliyat bo‘lib, o‘qituvchi o‘quvchi bilan har bir muloqotida, baho qo‘yishda, nizoli vaziyatni hal etishda, ota-onalar bilan hamkorlik qilishda muayyan axloqiy tanlov qiladi. Bunday tanlovning sifati bilim va ko‘nikma darajasi bilan bir qatorda, shaxsning qadriyatlar tizimiga bog‘liq. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-axloqiy madaniyatini rivojlantirish masalasi pedagogik aksiologiya, ya’ni qadriyatlar haqidagi ta’limot bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘rib chiqilishi lozim. Kompetensiyaviy yondashuvning keng joriy etilishi ta’lim natijalarini aniq va o‘lchanadigan shaklda belgilash imkonini berdi. Biroq amaliyotda kompetensiya ko‘pincha bilim, ko‘nikma va malakalarning yig‘indisi sifatida, ya’ni uning operatsion jihati bilan cheklab talqin qilinadi. Natijada shaxsning qadriyatli-motivatsion asoslari, kasbiy faoliyatga munosabati va axloqiy pozitsiyasi e’tibordan chetda qolish xavfi tug‘iladi. Mazkur maqolaning maqsadi kompetensiyaviy yondashuvning aksiologik jihatini nazariy asoslash hamda uni bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-axloqiy madaniyatni rivojlantirish jarayoniga tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlarini ochib berishdan iborat. Aksiologiya qadriyatlar nazariyasi sifatida umuminsoniy qadriyatlarga yo‘naltirilgan ilmiy yondashuvni ifodalaydi. “Qadriyat” tushunchasi falsafa, sotsiologiya va pedagogikada turlicha talqin qilinadi. N.S. Rozov qadriyatni “haqiqat”, “aql”, “inson” yoki “madaniyat” kabi yakuniy va chegaraviy kategoriyalar qatoriga kiritadi. Q. Nazarov qadriyatni sub’ekt uchun muayyan ta’sir kuchiga ega bo‘lgan voqelik sifatida izohlaydi. Sotsiologik manbalarda esa qadriyat jamiyat va shaxs uchun ahamiyatli bo‘lgan hodisalarni baholash mezoni sifatida qaraladi. Tadqiqotchilar qadriyatni u ifodalaydigan narsa yoki hodisa bilan, shuningdek, madaniyat tushunchasi bilan ayniylashtirish metodologik jihatdan to‘g‘ri emasligini ta’kidlaydilar. Qadriyatlarning tizimli tasniflari ham mavjud. I.P. Podlasiy qadriyatlarni uch tizimga ajratadi: transsendental, ijtimoiy yo‘naltirilgan (sotsiotsentrik) va antropotsentrik qadriyatlar. P. Sorokin esa qadriyatlar tizimini ideatsional, hissiy va ideal turlarga bo‘ladi, ideal tizimni mutlaq tamoyillar bilan vaziyatga moslashuvchan hissiy qadriyatlarning uyg‘unligi sifatida tavsiflaydi. “Qadriyatga yo‘nalganlik” tushunchasi XX asrning 20-yillarida sotsiologiyaga V. Tomas va F. Znanetskiy tomonidan kiritilgan. T. Parsons qadriyat va qadriyatga yo‘nalganlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni konseptual jihatdan asoslagan. M. Rokich esa “ustanovka” tushunchasini “qadriyatga yo‘nalganlik”dan ajratib, uni muayyan ob’ekt yoki vaziyatga nisbatan uzoq vaqt davomida shakllangan ishonch va e’tiqodlar majmuasi sifatida talqin qilgan. Pedagogik aksiologiya yo‘nalishida B. Xodjaev shaxsning o‘z ichki pozitsiyasini anglashi va aniq qadriyatlarga

tayangan holda amaliy faoliyatga tayyorligini qadriyatli yo‘nalganlik bilan bog‘laydi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan, shuningdek, pedagogika ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha amaldagi Davlat ta’lim standartini mazmunan tahlil qilish usulidan foydalanildi.Pedagogik qadriyatlar mohiyati. “Qadriyat” atamasida inson uchun foydalilik va ahamiyat g‘oyasi mujassam bo‘lgani sababli, bo‘lajak pedagog uchun shaxsiy va kasbiy kamolotida hayotiy resurs sifatida baholanadigan barcha jihatlar qadrli hisoblanadi. Pedagogik qadriyatlar pedagogik faoliyatning o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi va kasbiy faoliyatning mazmunini, maqsadini hamda uslubini belgilab beradi. V.A. Slasteninning fikricha, pedagogik faoliyatga xos qadriyatlarning interiorizatsiyasi, ya’ni ularning shaxs ongiga singdirilishi bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy madaniyat shakllanishining boshlang‘ich va poydevor bosqichi hisoblanadi.

Pedagogik qadriyatlarning tasniflari. Mavjud tasniflar ichida V.A. Slastenin yondashuvi pedagogik faoliyatning tuzilishi bilan bevosita bog‘liqligi jihatidan alohida ahamiyatga ega. Unda qadriyatlar kasbiy motivatsiya, faoliyat maqsadlari va axloqiy yo‘nalganlikni belgilovchi tayanch sifatlar sifatida qaraladi. N.M. Egamberdieva esa pedagogik qadriyatlarni ijtimoiy-pedagogik va shaxsiy-pedagogik guruhlarga ajratib, ularni talabaning jamiyatga moslashuvi va kasbiy shakllanishining metodologik asosi sifatida ko‘rsatadi. Slastenin tasnifining mazmuni 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval. Pedagogik qadriyatlarning tasnifi va ularning kasbiy-axloqiy madaniyatdagi o‘rni

Qadriyat guruhi	Mazmuni
Maqsadli	Bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy “Men” uyg‘unligida shakllanadigan individual konsepsiya; pedagogik faoliyatning strategik maqsadlari
Vositali	Pedagogik muloqot, pedagogik texnika va texnologiyalar, monitoring, innovatsion faoliyat, intuitsiya
Munosabatli	Pedagogik jarayon ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar va pedagogning kasbga munosabati; hamkorlik muhiti
Sifat qadriyatlari	Shaxsning xulq-atvori va faoliyatida namoyon bo‘ladigan individual va kasbiy sifatlar; kasbiy yetuklik, axloqiy barqarorlik
Bilishga oid	Kasbning bilish faoliyati bilan bog‘liq jihatlari; talabalar tomonidan kasbga xos qadriyatlarning ongli e’tirof etilishi va qabul qilinishi

Kompetensiya va qadriyat bog‘liqligi. J. Raven kompetentlilikni alohida kompetensiyalarning yig‘indisi sifatida izohlaydi va uning ko‘p qirraliligini ta’kidlaydi. Zamonaviy talqinlarda esa kompetentlilik shaxsning integrativ sifati bo‘lib, u kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga tayyorlik va layoqatni, shuningdek, mustaqillik, mas’uliyat va ongli tanlov qila olish, ya’ni motivatsion-qadriyatli yo‘nalishlarni ro‘yobga chiqarish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Evropaning TUNING loyihasida kompetensiya bilim, amaliy va qadriyatli komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida ko‘rsatilgan; qadriyatli komponent shaxsning boshqalarni idrok etish usullari, hayotiy pozitsiyasi va xulq-atvorining qadriyatli-

motivatsion asoslarini belgilaydi. Demak, qadriyatli komponent kompetensiyaning qo‘shimcha emas, uning ajralmas tarkibiy qismidir. Pedagogika ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha amaldagi Davlat ta’lim standartini tahlil qilish natijasida kasbiy kompetensiyalar tarkibidagi 36 ta kompetensiyadan 5 tasi (KK-3, KK-6, KK-7, KK-8, KK-9) bevosita kasbiy-axloqiy madaniyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgani aniqlandi. Ular o‘quv-tarbiya jarayonini loyihalash va tashkil etish, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalarni qo‘llash, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish, shaxs rivojlanishini tashxislash va o‘z-o‘zini tarbiyalashga intilishni shakllantirish tayyorligini qamrab oladi. Ushbu kompetensiyalarning har biri qadriyatli yo‘nalganlikka tayanmasdan to‘liq shakllana olmaydi. Aksiologik yondashuvning tamoyili. Kasbiy-axloqiy madaniyatni rivojlantirish modelida kompetensiyaviy yondashuv integrativlik tamoyiliga tayanadi, chunki kasbiy-axloqiy fazilatlar mazmunan bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Aksiologik yondashuv esa erishilgan natijalarning barqarorligini ta’minlash tamoyili asosida qo‘llanadi: talaba kasbiy-axloqiy bilimlarni o‘zlashtirgach, unda qadriyatli yo‘nalganlik shakllanmasa, bilim vaziyatga bog‘liq, beqaror bo‘lib qoladi. Shu sababli kompetensiyaviy yondashuvning aksiologik jihatiga ustuvorlik berish ta’lim jarayonini talabada olamga, kasbiy faoliyatga va kasb egasi sifatida o‘ziga nisbatan qadriyatli munosabatni tarbiyalashga yo‘naltirish demakdir. Aksiologik yondashuvning amaliy imkoniyatlari. Tadqiqot doirasida aksiologik yondashuvni amalga oshirish uchun “Pedagogik aksiologiya” elektiv kursi va “Kasbiy axloq” ijodiy to‘garagi mashg‘ulotlari ishlab chiqildi. Mashg‘ulotlarda quyidagi vosita va shakllardan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi:

– ma’naviy tanlov vaziyatlari. Talaba o‘z manfaati bilan boshqa insonning qadr-qimmati o‘rtasida tanlov qilishga majbur bo‘ladigan modellashtirilgan holatlar tahlil qilinadi, tanlovning psixotexnikasi o‘rgatiladi;

– murakkab pedagogik vaziyatlarni axloqiy-me’yoriy jihatdan tahlil qilish, masalan, o‘jarlikni mardlik deb baholayotgan o‘smir bilan suhbat yoki ota-onalar yig‘ilishida sinf rahbarining takabbur ohangi masalasini muhokama etish;

– xalq pedagogikasi namunalari: o‘zbek maqol va matallarida, pand-nasihatlarda aks etgan odob-axloq hikmatlarini tahlil qilish va ularni dars jarayonida qo‘llashga tayyorlash;

– kasbiy-axloqiy treninglar: ular talabaning shaxsiy kompetentlik darajasini xolis baholash, ichki motivatsiyani kuchaytirish va individual o‘sish traektoriyasini loyihalash imkonini beradi;

– lingvodidaktik vazifalar: “Pedagogik odob — bu …”, “Pedagogik takt — bu …” kabi ta’riflarni talabaning shaxsiy tasavvuri asosida davom ettirish orqali qadriyatli munosabatni so‘z bilan ifodalash.

Bu vositalarning umumiy jihati shundaki, ular talabani tayyor qoidani yodlovchi emas, balki qadriyatni anglovchi, tanlovni asoslovchi va uning oqibatiga javob beruvchi sub’ekt maqomiga qo‘yadi. Aynan shu holat qadriyatli munosabatning shaxsiy pozitsiyaga aylanishini ta’minlaydi. Shuningdek, tabassum, nigoh, ovoz ohangi, imo-ishora kabi noverbal vositalar bilan ishlash o‘qituvchining ichki munosabati va tashqi xulq-atvori o‘rtasidagi muvofiqlikni,

ya’ni samimiylikni tarbiyalashga xizmat qiladi. O‘quvchilar “o‘qituvchi niqobi” bilan haqiqiy munosabat o‘rtasidagi nomuvofiqlikni tez sezishi ta’kidlanadi.

Muhokama. Keltirilgan tahlil kasbiy-axloqiy madaniyatni rivojlantirishda aksiologik yondashuv alohida metodik yo‘nalish emas, balki kompetensiyaviy yondashuvning mazmunini to‘ldiruvchi asos ekanligini ko‘rsatadi. Agar kompetensiya faqat “nimani bilish va nimani qila olish” bilan cheklansa, “nima uchun va qanday qadriyatga tayanib qilish” degan savol javobsiz qoladi. Aksiologik jihat ushbu savolga javob beradi va o‘qituvchi faoliyatiga mas’uliyat, burch va insonparvarlik mazmunini kiritadi. Shu bilan birga, qadriyatni tayyor shaklda “yetkazib berish” mumkin emasligini, uni talabaning shaxsiy tajribasi, refleksiyasi va tanlovi orqali shakllantirish zarurligini hisobga olish kerak. Mazkur yo‘nalishda tajriba-sinov ishlarining kengaytirilishi va natijalarning miqdoriy jihatdan baholanishi kelgusi tadqiqotlar uchun dolzarb vazifa bo‘lib qoladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-axloqiy madaniyatni rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning aksiologik jihati nazariy va metodologik asos sifatida muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, qadriyat, qadriyatli yo‘nalganlik va qadriyatli ustanovka tushunchalarini farqlash pedagogik jarayonni aniqroq loyihalash imkonini beradi. Ikkinchidan, pedagogik qadriyatlarning tasnifi (maqsadli, vositali, munosabatli, sifat va bilishga oid qadriyatlar) talabaning kasbiy-axloqiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Uchinchidan, kompetensiya va qadriyat o‘zaro uzviy bog‘liq: qadriyatli komponentsiz kompetensiya barqaror xulq-atvorga aylanmaydi. To‘rtinchidan, aksiologik yondashuvni amalga oshirishda ma’naviy tanlov vaziyatlari, xalq pedagogikasi namunalari, treninglar va ijodiy to‘garak mashg‘ulotlari samarali pedagogik vosita bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги ПҚ-4623-сон “Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 28.02.2020 й., 07/20/4623/0220-сон, 13.06.2020 й., 07/20/4749/0758-сон.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.06.2022-y., 07/22/289/0562-son.

3. Эгамбердиева Н.М. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида): пед. фан. док. ... дисс. – Т., 2010. – 332 б.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.06.2022-y., 07/22/289/0562-son.

5. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya.– “Fan va texnologiya” nashriyoti, T.: 2013- y 3. 2. N.Muslimov,

M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev - Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent. “Sano-standart” 2015-y

6. Sultonov, Sherzod Elmuratovich. "PEDAGOG-KADR KOMPETENSIYASI TA’LIM JARAYONINING SAMARADORLIGINI TA’MINLASH ZARURIYATI SIFATIDA." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.7 (2022): 60-63.

7. Sultonov, Sherzod Elmuratovich. "PEDAGOGIKADA KOMPETENTSIYA TUSHUNCHASI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.7 (2022): 55-59

8. Yuldashev, Elyorjon. "Secondary School Students Independent Education." INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNO Yuldashev,